

TASAVVUFDA ISHQ – ILOHIY MUHABBAT VA MA'RIFAT MANBAI

Ozodaxon Choriyeva

Toshkent amaliy fanlar universiteti, 1-bosqich magistranti.

choriyevaozoda2@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.17131561>

Annotatsiya. Maqolada tasavvuf falsafasida “ishq” tushunchasining mohiyati va mazmuni keng yoritiladi. Soʻfiylik taʼlimotida ishq nafaqat Allohga boʻlgan muhabbatning yuksak ifodasi, balki maʼrifat sari eltuvchi, ruhiy poklanish va komillikka yetaklovchi eng asosiy vosita sifatida talqin qilinadi. Xususan, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida ishq inson qalbini ilohiy haqiqatga yaqinlashtiruvchi, ruhiyatni tarbiyalovchi kuch sifatida namoyon boʻlishi tahlil qilingan. Shuningdek, ishqning tasavvufiy adabiyotdagi ramziy talqinlari, uning poetik obrazlar orqali ifodalanishi ham ilmiy izohlanadi.

Kalit soʻzlar: tasavvuf, ishq, ilohiy muhabbat, maʼrifat, ruhiy komillik, soʻfiy mutafakkirlar, tasavvufiy adabiyot.

Annotation. The article provides a comprehensive analysis of the concept of “Ishq” in Sufi philosophy. Within Sufi teachings, ishq is understood not only as the highest expression of love for God but also as a key path leading towards knowledge, spiritual purification, and inner perfection. Particular attention is given to the works of Jalal al-Din Rumi, Alisher Navoi, and other thinkers, in which ishq is presented as a transformative force that elevates the human soul towards divine truth. Furthermore, the study explores the symbolic interpretations of ishq in Sufi literature and the ways in which it is expressed through poetic imagery.

Keywords: Sufism, Ishq, divine love, maʼrifa, spiritual purification, inner perfection, Sufi thinkers, mystical literature.

Tasavvufda ishq falsafasi Haqqa boʻlgan chuqur taslimiyat va mukammal itoatning oʻziga xos koʻrinishi hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki muhabbatning asl manbasini avvalo Mahbub Zotning Oʻz Kalomidan soʻngra Alloh barcha mavjudotlardan avval Uning Ruhini va uning haqqi hurmati oʻn sakkizming olamni yaratgan, oʻz koʻrsatma va buyruqlarini U orqali bandalariga yuborgan, Allohning eng mahbubi Paygʻambarimiz s.a.v hadislaridan izlashimiz lozim.

Ishq kalimasi sevgi, muhabbat maʼnosini chuqur va oʻziga xos tarzda ifoda etish yoʻlida tasavvuf taʼlimoti uchun maxsus tanlab olingan, soʻz boʻlib Qurʼonda ayni nom bilan ifoda etilmasada, tasavvufiy asarlarga asos va iqtibos sifatida olingan oyatlarda “muhabbat”, “taqvo”, “uns”, “rahmonlik”, “ulfat” kabi soʻzlarda oʻz ruhini sezdirib turadi.

“Albatta, iymon keltirgan va yaxshi amallarni qilganlarga Rohman muhabbat paydo qilur.” Maryam surasining yuqoridagi 96-oyatida Alloh sevgisiga sazavor boʻluvchi insonlar toifasi haqida soʻz yuritilganda, “muhabbat” kalimasidan foydalanilgan. Muhabbat soʻzi arabcha “hubb” soʻzining oʻzagidan olingan boʻlib “lozim tutish” va “sabot” maʼnolarini anglatadi. Chin maʼnoda, Allohga oshiqlik daʼvosini qilayotgan bir banda sabotni yaʼni qatʼiyat va mustahkam irodani lozim tutishi kerakki, ishq daʼvosi munofiqlik balosiga aylanmasin.

Tarixdan paygʻambarlar, sahoba-yu avliyo zotlar shuningdek tasavvuf namoyondalari hayotiga nazar tashlasak, ularning bari qadarga rizoligi, musibatlarga bardoshi, oʻzida boriga shukri va oʻzida yoʻgʻiga sabri bilan, farzlardagi qatʼiyat, naflarga muhabbat va oʻzlarini Yaratgan Zotga nisbatan goʻzal itoati va muhabbati bilan butun islom ahliga oʻrnak va ibrat boʻlganlar.

Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v Haqqa bo'lgan muhabbatning belgilari va bu muhabbatga sazavorlik haqida ummatlariga bir qancha go'zal hadislar qoldirgan, xususan, "Kim Alloh uchun sevsa, Alloh uchun adovat qilsa, Alloh uchun bersa va Alloh uchun qaytarsa, uning iymoni mukammal bo'ladi"¹

Yuqoridagi hadisda nafaqat Alloh yo'lidagi muhabbat balki, Haq yo'lida bir zolimga, zulm qiluvchi qavmga va boshqa yomonlikning har turli ko'rinishiga qilingan nafrat ham Allohga bo'lgan muhabbatning komilligidan ekanligi izohlansa, keyingi "Bandam Menga farz amallar bilan yaqinlashadi. Nafl ibodatlar bilan Menga yaqinlashishda davom etadi.

Nihoyat, Men uni sevib qolaman. Uni sevganimda, u orqali eshitadigan qulog'i, ko'radigan ko'zi, ushlaydigan qo'li va yuradigan oyog'i bo'laman..."²

Ushbu hadisda bandalar qanday qilib Rahmon muhabbatiga munosib bo'lishlari bosqichi ta'lim berilgan.

Yirik tasavvuf namoyondasi hisoblangan Jaloliddin Rumi ham muhabbatga bergan ta'rifida "To'g'ri, muhabbat olam gardishini aylantirmaydi. Muhabbat shu gardish aylanishiga ma'no bag'ishlaydi", deydi. Ya'ni Inson muhabbasiz ham yashashi mumkin, ammo yashamoqning mohiyati muhabbat bo'lgandan keyin usiz yashamoq mazmunsiz hayot kechirmoqdir deya har bir ongli mavjudot uchun Uni yaratgan Zotga itoat va muhabbat Uning rizoligiga intilish hayot mazmuni kabi demochidek, go'yo.

Yana muhabbatning asl manbasi bo'lgan Qur'oni Karimga qaytadigan bo'lsak, Alloh Taolo O'z sevgisiga yo'l ko'rsatar ekan Oli Imron surasining 31-oyatida Sen: "Agar Allohga muhabbat qilsangiz, bas, menga ergashing. Alloh sizga muhabbat qiladi va sizlarni gunohlaringizni mag'firat qiladi", deb ayt"- deya nabisi orqali bandalariga yo'l yo'riq ko'rsatadi. Bundan kelib chiqadiki, Allohning muhabbatiga da'vogar har bir oshiq avvalo U Zotning Rasuliga Uning ko'rsatmalariga amal qilishi va go'zal ahloqiga ergashishi lozimligini anglash mumkin.

Bu hayotga kelib inson sifatida shakllangan har tirik jonning o'zi tanlagan bir yo'li, hayot tutumi bo'ladi. Tasavvuf ham ana o'shanday yo'llardan biri bo'lib undan yurish uchun shunchaki tanlov kamlik qiladi, bu yo'lni inson o'z xohish irodasiga ko'ra tanlamaydi, aksincha shariat va tariqat yo'llari mashaqqatlaridan omon chiqqan insonlarni tasavvuf o'zi tanlaydi. Tasavvuf yo'li ishq yo'lidir, ishq esa inson istagiga ko'ra emas, uning ma'rifat darajasiga ko'ra ilohiyotdan qalbga joylanuvchi ne'matdir. Ya'ni Alloh faqat O'zi sevgan, Haq muhabbati yo'lida dunyo va undagi ne'matlar muhabbatini qalbiga yo'latmagan bandalargagina o'z muhabbatini nasib etadi.

Jaloliddin Rumiyni "Ishq otashi avval sevilganga tushadi, undan so'ngra sevganga sachraydi" degan hikmatli so'zi tasavvufiy falsafada ishqning o'ziga xos dinamikasini anglatadi.

Rumiyni nazarida, ishq birlamchi manba sifatida inson irodasidan tashqarida — ilohiy qudratning inoyati sifatida paydo bo'ladi. Ya'ni avvalo "seviluvchi" – Alloh tomonidan inson qalbiga muhabbat otashi tushiriladi. Bu ilohiy muhabbat insonga ruhiy uyg'onish, poklanish va ma'rifat eshigini ochadi.

Keyingi bosqichda esa qalbida ishq otashi uyg'ongan "sevguchi" – banda, o'zini to'liq Allohga bag'ishlashga intiladi. Demak, ishqning manbai ilohiydir, uning ta'siri esa insonni tozalab, uni komillik sari yo'naltiradi. Rumiyni bu qarashidan kelib chiqib, tasavvufda ishq bir tomonlama emas, balki ikki tomonlama ruhiy jarayon sifatida talqin qilinadi: avval ilohiy mehrning insonga in'om etilishi, so'ng insonga xos muhabbatning Haqqa yo'nalishi.

¹ Sunan Abu Dawud. Imâm hâfiz Abu Dawud Sulaiman bin Ashath; Nasiruddin AI-Khattab, Riyadh-2008. S-200.

² Imom Buxoriy. Al-Jomi' as-sahih. Riqoq kitobi. Tavoze' bobi. Toshkent- 1991.

Shu bois bu fikr tasavvuf falsafasida ishqning ilohiy ildizlarga ega bo'lishi va insonning ruhiy kamolotidagi o'rmini ifodalovchi asosiy tushunchalardan biri sifatida qaraladi.

Tasavvufda ish haqida so'z ketar ekan, avvalo tasavvuf tushunchasiga biroz to'xtab o'tishni lozim topdik. Tasavvuf so'zi arabcha sufiylik so'zidan olingan bo'lib, islomda ruhiy va axloqiy barkamollikka erishish, ilohiy muhabbat asrorlaridan ogoh bo'lish tamoyili sifatida qaraladi. Tasavvuf so'zining mohiyati haqida ko'plab olimlar o'zlarining turli qarashlarini bildirishgan bo'lsalarda, bu borada Ibn Xaldunning fikri haqiqatga eng yaqini sifatida etirof etiladi. Ibn Xaldun "tasavvuf "suvf" — "jun", "po'stin" so'zidan olingan bo'lishi kerak, zero qadimdan tarkidunyo qilgan zohidlar jundan to'qilgan kiyim yoki po'stin kiyib yurishni odat qilganlar, bu bilan ular bashang kiyinib yuruvchi axli dunyolardan farqli hayot tarzini o'zlarida namoyon etganlar"³, deydi o'zining "Muqaddima" asarida. Bu esa tasavvuf so'zining atama sifatidagi ma'nosi bo'lib asliyatda bu tushuncha shunchaki ustiga jun po'stin kiyib yurishdan ko'ra ancha chuqur va teran mohiyat kasb etganki, islom tarixidagi eng ko'zga ko'ringan avliyo va valiy zotlar o'z umrini shu ta'limot yo'lida, uning sir asrorlariga izoh berish yo'lida bag'shida etishgan, ko'plab umrboqiy asarlar, go'zal tashbehlar va betakror g'azallar yaratishgan. Va ulardan so'ng minglab olimlar xalqaro mutaxassislar tasavvufiy yo'nalishda yaratilgan asarlardagi, go'zallik va boshqa adabiy turlarda uchramaydigan samimiy, shuningdek mutlaqo taslimiyat va itoatga asoslangan muhabbatga ta'rif berishga urinib kelishayotgan bo'lsalarda hamon bu sohadagi sirlar to'la ochilmagan, hamon tasavvufda kashf etilayotgan yangidan-yangi go'zal va kutilmagan fathlar ilm ahlini hayratga solib kelmoqda.

Tasavvuf ta'limotining paydo bo'lish sabab va maqsadlaridan ko'rishimiz mumkinki, tasavvuf avvalo bir yo'l uchun boshqalarini tark etish, bir ishq uchun boshqalaridan vos kechish, butun vujudni anashu muhabbat yo'lida Mahbubning rizoligi yo'lga bag'shida etishdan iborat ekan. Tasavvuf ostonasidan hatlar ekanmiz bu ta'limot bizga avvalo ikki xil ishq ta'rifini beradi majoziy va haqiqiy bundan kelib chiqadiki, tasavvuf bir insonning boshqa bir insonga bo'lgan yoki boshqa mahluqotga bo'lgan muhabbatini tamomila inkor qilmaydi, aksincha haqiqiy muhabbat darvozasidan kirishni istasang majoziy muhabbatda sen uchun bir hikmat bor deydi go'yo.

Majoziy ishqda deylik, bir inson boshqa birini sevib qoldi. Biz bilgan sevgi qoidalariga ko'ra sevgan inson sevgilisining quvonchi uchun boshiga kelishi mumkin bo'lgan mashaqqatlardan bo'yin tovlamaydi, uning talab va istaklari qarshisida bo'yin egadi, o'zi oshiq bo'lgan insonni baxtli ko'rish uchun qo'ldan kelgancha harakat qiladi, unga bo'lgan qo'rquvidan yoki majburiyatidan emas aynan muhabbati sababli uning orzu va istaklari quliga aylanadi, mahbubiga bo'lgan muhabbati yo'lida na molini na jonini ayaydi mana shunday haqiqiy sevgi bilan birga bog'langan insonning hayotida boshqa biri bo'lishiga ishonasizmi, albatta yo'q, haqiqiy sevgining eng asosiysi va go'zal talabi ham shundaki, birining ishqida minglardan voz kechmoq, birini ko'rgan kuz boshqalari uchun ko'rga aylanmoqdir. Sevgani xohlagan narsalarni bajarmoq, xohlamaganlarini esa garchi nafsiga yoqsada sevgisi uchun tark etmoqdir ishq.

Kamchilik va nuqsonlardan xoli bo'lmagan bir yaratiqni chin qalbdan sevmok bu qadar fidoiylilik va samimiyat talab etar ekan, o'n sakkizming olam yaratuvchisi, benuqson, kechirimli va rahmdil, bandalarini rizqlantiruvchi, marhamati keng bo'lgan Alloh muhabbati insonni qay ko'yilarga solishi mumkin, hech tasavvur qilganmisiz?!

Alloh bandalarini o'zini sevdirish uchun yaratgan degan g'oyani ilgari surgan tasavvufning asl manbai va asosi ishqdir.

³ Ибн Халдун. Ал-Мукаддима. Ал-Қоҳира: Дор ал-китаб Ал-Мисрий ва ал-Лубнаний, 1999 м., 18-б.

Faqat qalbida Haqqa, haqiqatga ishq bo'lgan bandalargina bu yo'lga kirishi mumkin. Ishq zardobini ichishni o'zi tanlagan har oshiq biladiki, bu yo'lda uning jismiga va nafsiga bir nasiba, rohat-farog'at yoq, faqat qalb tazkin topishi mumkin.

Tasavvufda ishq nafaqat ilohiy muhabbat, balki inson qalbini sinovdan o'tkazuvchi, uni fidoyilikka undovchi qudrat sifatida talqin qilinadi. Shams Tabriziy: *“Yonishdan qo'rqqan inson, Ishq eshigidan kirmasin”* deya ta'kidlab, haqiqiy ishq yo'li og'ir sinovlar va ruhiy iztiroblar bilan bog'liq ekanini anglatadi. Bu yerda “yonish” ramziy ma'noda nafs bilan kurash, dunyoviy istaklardan voz kechish va ruhiy poklanish jarayonini bildiradi. Demak, ishq eshigidan kirgan solik fidoyilik, sabr va ruhiy jasoratga tayyor bo'lishi zarur.

Jaloliddin Rumiy ham ishqni insonni “ilohiy otashda kuyib, poklanadigan jarayon” sifatida talqin qiladi. Uningcha, ishq avval ilohiy manbadan keladi, so'ng inson qalbida yonganida uni Haqqa tomon olib boradi. Rumiy nazarida, ishqsiz ruhiy komillikka erishish mumkin emas.

Alisher Navoiy esa ishqni nafaqat ruhiy tajriba, balki insonni komillikka eltuvchi ulug' vosita sifatida talqin qiladi. Uning qahramonlari ishq yo'lida iztirob chekadi, fidoyilik ko'rsatadi va ana shu ruhiy sinovlar orqali Haqqa yaqinlashadi. Navoiy ijodida ishq ko'pincha sabr, azob va o'zini inkor etish orqali yuksak ma'rifat darajasiga ko'tariladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, tasavvuf falsafasida ishq tushunchasi inson ruhiy kamolotining markazida turadi. Shams Tabriziy ta'kidlaganidek, ishq yo'lga kirish fidoyilik va sinovlarni talab etadi; Rumiy qarashlarida esa u insonni ilohiy haqiqat sari yetaklovchi otash sifatida talqin qilinadi. Navoiy ijodida ishqning badiiy-estetik qirralari ochilib, u insonni sabr, iztirob va o'zini inkor etish orqali komillikka eltuvchi eng buyuk kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Demak, ishq tasavvufiy tafakkurda nafaqat ma'naviy tajriba, balki Haqqa yetaklovchi tamoyil bo'lib, uning falsafiy va adabiy talqinlari bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Adabiyotlar:

1. Hayitmetov, A. Alisher Navoiy va tasavvuf. – Toshkent: Fan, 1963.
2. Mallaev, N. Alisher Navoiy. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1972.
3. “Tafsiri Hilol” Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf «HILOL NASHR» Nashriyot-matbaasi 2024 (2007–2023).
4. Sunan Abu Dawud. Imâm hâfiz Abu Dawud Sulaiman bin Ashath; Nasiruddin Al-Khattab, Riyadh-2008. S-200.
5. Imom Buxoriy. Al-Jomi' as-sahih. Riqoq kitobi. Tavoze' bobi. Toshkent- 1991.
6. Ибн Халдун. Ал-Муқаддима. Ал-Қоҳира: Дор ал-китаб Ал-Мисрий ва ал-Лубнаний, 1999 м., 18.
7. Hakima Salomova “Shams Tabriziy va Jaloliddin Rumiy.” Imom Buxoriy saboqlari, 1-son, 2021.
8. Imom G'azzoliy. Ihyoyu ulumiddin. Toshkent, Qamar media, 2021.
9. Najmiddin Komilov “Tasavvuf” Toshkent “Movarounnahr”- “O'zbekiston” 2009 - B.9